

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH

Jumayev Shuxrat

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

ORCID: 0009-0003-4452-771X

E-mail: sh.jumaev@tsue.uz

Annotatsiya

Maqolada Respublikamizda soliq siyosatini takomillashtirishning nazariy, amaliy jihatlari, bugungi kundagi muammolari tahlil qilingan. Bugungi kunda soliq siyosati davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosatda muhim o‘rin egallab, soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish, davlat byudjeti soliq tushumlarining barqarorligini ta‘minlash, soliq intizomini mustahkamlash bilan bir qatorda soliq to‘lovchilar o‘rtasida tenglikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqot doirasida O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan soliq siyosati, ma‘murchiligidagi muammolar tahlil etilgan va xorij tajribasi o‘rganilib, ushbu tajribalarni milliy soliq tizimimizda qo‘llash imkoniyatlari baholangan. Shuningdek, O‘zbekistonda soliq siyosatini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida soliqqa tortishni takomillashtirish, soliq to‘lovchilar uchun tenglik muhitini yaratish, ayrim soliq imtiyozlarini bekor qilish masalalari bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliq siyosati, soliq ma‘murchiligi, fiskal siyosat, soliq tizimi, soliq to‘lovchi, soliq nazorati, soliq xizmati, soliq imtiyozi.

Аннотация

В статье анализируются теоретические и практические аспекты совершенствования налоговой политики в нашей Республике, а также современные проблемы. На сегодняшний день налоговая политика занимает важное место в экономической политике, проводимой государством, служит дальнейшему повышению правовой культуры налогоплательщиков, обеспечению стабильности налоговых поступлений в государственный бюджет, укреплению налоговой дисциплины, а также обеспечению равенства между налогоплательщиками. В рамках научного исследования проанализированы проблемы налоговой политики и администрирования в Республике Узбекистан, изучен зарубежный опыт и оценены возможности применения этого опыта в нашей национальной налоговой системе. Также в качестве приоритетных направлений совершенствования налоговой политики в Узбекистане разработаны конкретные предложения по вопросам совершенствования налогообложения, создания среды равенства для налогоплательщиков, отмены некоторых налоговых льгот.

Ключевые слова: налоговая политика, налоговое администрирование, фискальная политика, налоговая система, налогоплательщик, налоговый контроль, налоговая служба, налоговая льгота.

Abstract

The article analyzes the theoretical and practical aspects of improving tax policy in our Republic, as well as current problems. Today, tax policy occupies an important place in the economic policy pursued by the state and serves to further improve the legal culture of taxpayers, ensure the stability of tax revenues to the state budget, strengthen tax discipline, as well as ensure equality among taxpayers. Within the framework of the scientific research, problems in the implementation of tax policy and administration in the Republic of Uzbekistan were analyzed, and foreign experience was studied, and the possibilities of applying this experience in our national tax system were assessed. Also, specific proposals have been developed on improving taxation, creating an equal environment for taxpayers, and abolishing certain tax benefits as priority areas for improving tax policy in Uzbekistan.

Keywords: tax policy, tax administration, fiscal policy, tax system, taxpayer, tax control, tax service, tax benefit.

KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy o'zgarishlar va raqobat muhiti sharoitida davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish hamda ijtimoiy muvozanatni saqlashda soliq siyosati muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Soliq siyosati – bu davlatning iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib, u orqali davlatning fiskal funksiyalari amalga oshiriladi, iqtisodiy resurslar qayta taqsimlanadi va makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi.

Soliq siyosati davlatning iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi sifatida, moliyaviy manbalarni to'plash va ularni samarali taqsimlash orqali iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yurituvchi subyektlar uchun barqaror muhit yaratishga xizmat qiladi. Uning asosiy vazifasi – soliq yukini adolatli taqsimlash, soliq tizimini soddalashtirish, iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash va byudjet barqarorligini ta'minlashdan iboratdir.

Respublikamizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida soliq siyosatini isloh qilish va uni zamonaviy talablarga moslashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. 2017–2024-yillarda qabul qilingan qator normativ-huquqiy hujjatlar orqali soliq tizimi va soliq qonunchiligi tubdan qayta ko'rib chiqildi, soliq turlari unifikatsiya qilindi va soliq yuki sezilarli darajada kamaytirishga erishildi. Jumladan, foyda solig'i, jismoniy shaxslar daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i bo'yicha stavkalar qayta ko'rib chiqilib, tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish uchun qulay sharoit ta'minlandi.

Soliq siyosatini takomillashtirishning asosiy maqsadi — davlatning fiskal barqarorligini va iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iboratdir. Shuningdek, soliq siyosatini strategik yo'nalish sifatida amalga oshirishda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, investitsiyalarni jalb qilish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash kabi vazifalar ustuvor hisoblanadi.

Jahon amaliyotida soliq siyosatini shakllantirishda ilg'or mamlakatlar tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, OECD mamlakatlarida soliq tizimini tartibga solishda soddalik, shaffoflik va raqamli ma'muriyat ustuvor bo'lib, "compliance-based

taxation” (ijro intizomiga asoslangan soliq siyosati) tamoyili keng qo‘llanilmoqda. Bu tajriba soliq to‘lovchilar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi hamda soliq to‘lov intizomini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda soliq siyosatini takomillashtirish jarayonida xalqaro tajribalar bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Soliq imtiyozlari tizimi qayta ko‘rib chiqilib, ularning maqsadliliigi va samaradorligi oshirildi. Soliq ma‘muriyatida raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilib, axborot tizimlari orqali interaktiv xizmatlar tashkil etildi.

Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, soliq siyosatining ayrim sohalarida hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar ham mavjud. Xususan, soliq yukining tarmoqlar kesimida nomutanosib taqsimlanishi, ayrim imtiyozlarning iqtisodiy samaradorligi pastligi, soliq bazasini kengaytirishdagi to‘siqlar va investitsiyaviy faollikni rag‘batlantirish mexanizmlarining yetarlicha samara bermayotgani shular jumlasidandir.

Shunday ekan, soliq siyosatini takomillashtirish masalasi bugungi kunda O‘zbekistonning iqtisodiy siyosatini modernizatsiya qilish va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Soliq siyosatining ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o‘rganish, xalqaro tajribani tahlil qilish va milliy sharoitga mos modellarni ishlab chiqish mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi va moliyaviy mustaqilligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq siyosati bo‘yicha ilmiy-nazariy tadqiqotlar jahon iqtisodiy tafakkurining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu sohadagi ilmiy ishlanmalar davlatning iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash, fiskal tizimni mukammallashtirish va iqtisodiy faollikni rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

A. Smit o‘zining “Mamlakatlar boyligi tabiati va sabablari haqida tadqiqot” (1776) asarida soliqlarning adolat, aniqlik, qulaylik va tejamkorlik tamoyillarini belgilab, ularni soliq siyosatining ilk ilmiy asosi sifatida ko‘rsatgan. D. Rikardo esa soliqning iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini tahlil qilib, soliq yukining haddan ortiq oshishi kapital jamg‘arilishini cheklashini ta‘kidlagan.

R. Masgreyvning “Public Finance in Theory and Practice” (1959) asarida davlatning moliyaviy siyosatdagi uch funksiyasi — taqsimlash, qayta taqsimlash va barqarorlashtirish – ilmiy jihatdan asoslangan. Muallif soliq siyosatining faqat fiskal emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy funksiyalarini ham aniq belgilab bergan.

V. Tanzi va X. Zi (IMF) soliq siyosatining bozor iqtisodiyotidagi roli, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq siyosatini modernizatsiya qilishning ahamiyatini tadqiq qilgan. Ular “Tax Policy for Emerging Markets” (2000) asarida soliq yukini optimallashtirish, soliq imtiyozlarini maqsadli qo‘llash va soliq ma‘muriyati samaradorligini oshirish zarurligini ta‘kidlaydilar.

OECD va Jahon banki tadqiqotlarida soliq siyosatini takomillashtirishning zamonaviy tendensiyalari keng yoritilgan. “Paying Taxes” indikatorida mamlakatlarda soliq to‘lash jarayonining soddaligi, shaffofligi va soliq ma‘muriyatining raqamli darajasi baholanadi.

Rossiya iqtisodiy maktabi olimlaridan T.A. Yefremova, A.S. Karatayev, soliq siyosatining institutsional va amaliy jihatlarini o‘rgangan. T.A. Yefremova “Razvitiye nalogovogo administrirovaniya v Rossii” nomli tadqiqotida soliq siyosatini amalga oshirishda ma’muriy islohotlar va axborot texnologiyalarining rolini ko‘rsatgan bo‘lsa.

Mahalliy olimlardan O.Abduraxmonov, T.Malikov, E.Gadoyev, S.Xudoykulov, Sh.Toshmatov soliq siyosati va uning iqtisodiy barqarorlikka ta’siri, soliqqa tortishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ular soliq tizimini yanada rivojlantirish, imtiyozlarni optimallashtirish va investitsiya muhitini yaxshilash yo‘nalishlarini ilmiy asosda yoritib berganlar.

Xulosa qilib aytganda, soliq siyosatini takomillashtirishda uchta asosiy yo‘nalish ustuvor hisoblanadi: (1) soliq yukining adolatli darajasi; (2) raqamli soliq ma’muriyatini joriy etish; (3) soliq imtiyozlarining samaradorligini oshirish. Ushbu yo‘nalishlar mamlakat fiskal barqarorligi va iqtisodiy o‘shishiga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Maqolada mantiqiy usul, tahlil va sintez, normativ yondashuv, tizimli va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Soliq kodeksiga muvofiq, dividendlar tarzidagi daromadlarga soliq stavkasi 5 foiz miqdorida belgilangan.

Hozirgi kunda proporsional tarzda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari belgilangan davlatlarda progressiv shkala joriy etish masalasi kun tartibiga chiqqan. Xuddi shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida xam kelgusida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalarini progressiv shkalada joriy qilishni vaziyat taqozo qilmoqda. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘iga progressiv shkala joriy etilganda soliq yukini kamaytirish maqsadida ish haqidani daromadlarni dividendlarga yo‘naltirish holatlarini oldini olish maqsadida dividendlar tarzidagi daromadlar bo‘yicha soliq stavkasiga o‘zgarish kiritishni talab etadi. Shu sababli, bunday sxemalarni bartaraf etish uchun dividendlar bo‘yicha soliq stavkasi jismoniy shaxslar daromad solig‘i stavkalariga tenglashtirilishi lozim bo‘ladi.

Shu kabi holatlar bo‘yicha xorij tajribasi o‘rganilganda quyidagilar ma’lum bo‘ldi:

Xalqaro valyuta jamg‘armasi dividendlar bo‘yicha soliq stavkalarini jismoniy shaxslar daromad solig‘i stavkalariga yaqin miqdorda belgilashni tavsiya etadi. Qator davlatlarda ushbu yondashuv amalda qo‘llanilmoqda. Masalan, Rossiya Federatsiyasida 5 mln rublgacha bo‘lgan dividendlar 13 foiz (jismoniy shaxslar daromad solig‘ining minimal stavkasi) bo‘yicha, ushbu summadan ortiq dividendlar esa 15 foiz stavkada soliqqa tortiladi. Qozog‘iston Respublikasida esa 2026-yildan dividendlar 230 000 MRPgacha bo‘lgan daromadlar uchun 5 foiz, ushbu miqdordan ortiq daromadlar uchun 15 foiz stavkada soliqqa tortiladi. Qozog‘istonda jismoniy shaxslar daromad solig‘ining minimal stavkasi 10 foiz miqdorda belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, dividendlar tarzidagi soliq stavkasini 10 foiz miqdorida belgilash taklif etiladi.

2. *Bugungi kunda faqat aviakerosin mahsuloti aksiz solig'iga tortiladigan mahsulotlar ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, aviabenzin kiritilmagan.*

Hozirgi vaqtda aviabenzin aksiz solig'i solinadigan tovarlar ro'yxatiga kiritilmagan va shu sababli aksiz solig'iga tortiladigan mahsulotlar qatoriga kirmaydi. Biroq, tarkibi va maqsadi jihatidan u motor yoqilg'isining bir turi bo'lib, aksiz solig'i solinadigan benzin, dizel yoqilg'isi va kerosinga o'xshash hisoblanadi.

Aviabenzinga aksiz solig'ini joriy etish turli xil motor yoqilg'ilarini soliqqa tortishdagi mavjud notenglikni bartaraf etadi. Bu barcha turdagi energiya manbalarini soliqqa tortishda yagona va adolatli yondashuvni ta'minlaydi, bu esa soliq siyosati tamoyillariga mos keladi.

Aviabenzinni aksiz solig'iga tortish bo'yicha xorij tajribasi o'rganilganda quyidagilar ma'lum bo'ldi:

Rossiyada aviabenzinga aksiz solig'i joriy etilgan va u barcha turdagi motor yoqilg'isiga nisbatan yagona soliq siyosati doirasida amal qiladi.

Kanadada aviabenzinning 1 tonnasi uchun 100 AQSH dollari miqdorida aksiz solig'i belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aviabenzin mahsulotining 1 tonnasi uchun 360 ming so'm miqdorida aksiz solig'i joriy etish taklif etiladi.

3. *Bugungi kunda qizdiriladigan tamaki tayoqchasi uchun aksiz solig'i mahsulot tarkibidagi tamaki xom ashyosi massasiga nisbatan 1 kg uchun 450 ming so'm miqdorida belgilangan.*

2024-yilda "UzBAT" AJ tomonidan 18,9 ming quti (tarkibidagi tamaki 6,1 ming kg) qizdiriladigan tamaki tayoqchasi realizatsiya qilinib, 2,7 mlrd so'm aksiz solig'i to'langan.

Shu davrda, "Toshkent tobakko distribyushn" MCHJ tomonidan 834,6 ming quti (tamaki – 225,3 ming kg) qizdiriladigan tamaki tayoqchasi import qilinib, 101,4 mlrd so'm aksiz solig'i to'langan.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan qizdiriladigan tamaki mahsulotlarini (tayoqchalarini) tamaki miqdori qancha bo'lishidan qat'i nazar, soliq bazasini oddiy sigaretlar kabi 1000 donasiga soliqqa tortish tavsiya etilgan.

Shuningdek, qizdiriladigan tamaki mahsulotlarining chakana narxidagi aksiz solig'i ulushi an'anaviy sigaretalarga nisbatan pastligicha qolmoqda.

Misol uchun, "UzBAT" AJ tomonidan ishlab chiqariladigan "Kent mikro blu" nomli mahalliy sigaretaning chakana narxidagi aksiz solig'ining ulushi 36% tashkil etsa, shu korxonada tomonidan ishlab chiqariladigan "Neo purpl click" nomli mahalliy qizdiriladigan tamaki mahsulotining chakana narxidagi aksiz solig'i ulushi 17% tashkil etadi.

Shuningdek, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan sigaret narxidagi aksiz solig'ining ulushi o'rtacha 60% tashkil etishi lozimligi tavsiya etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qizdiriladigan tamaki tayoqchasi uchun aksiz solig'ini hisoblashni sigaretalar kabi og'irlikdan donaga o'tkazgan holda, soliq stavkasini 1 000 dona tayoqcha uchun 360 ming so'm miqdorida belgilash taklif etiladi.

4. Soliq kodeksiga muvofiq benzin, dizel yoqilg'isi va gaz mahsulotlariga nisbatan ikki marta aksiz solig'i belgilangan.

Birinchisi ushbu mahsulot ishlab chiqarilganda ishlab chiqaruvchilar tomonidan, ikkinchisi esa ushbu mahsulotni yakuniy iste'molchilarga sotishda savdo tashkilotlari tomonidan to'lanadi. Aksiz solig'ining stavkasi ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlari uchun bir xil 1 litri uchun 425 so'm, 1 tonnasi uchun 375 ming so'mgacha etib belgilangan.

Aviabenzinni aksiz solig'iga tortish bo'yicha xorij tajribasi o'rganilganda Rossiya, Qozog'iston va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida neft mahsulotlariga yagona aksiz solig'i tabaqalashtirilgan stavkalarda qo'llanilishi ma'lum bo'ldi.

Soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish maqsadida yakuniy iste'molchiga sotiladigan neft mahsulotlariga qo'llaniladigan soliqni benzin, dizel yoqilg'isi va gazga qo'llaniladigan aksiz solig'i bilan birlashtirish taklif etiladi. Benzin va dizel yoqilg'isining asosiy yetkazib beruvchilari BNQIZ va FNQIZ, shuningdek, import qiluvchilar ekanligini inobatga olgan holda, taklif etilayotgan o'zgartishlar soliq to'lovchilar sonini kamaytirish orqali ma'muriyatchilikni yengillashtiradi.

5. Soliq kodeksining 411-moddasiga asosan, qurilishi tugallanmagan obyektlar mol-mulk solig'ining soliq solish obyekti bo'lib hisoblanadi.

Biroq, qurilishi tugallanmagan obyekt deganda — loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar kirishi nazarda tutilgan.

“Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida”gi qonunga asosan binolar, inshootlar, shu jumladan qurilishi tugallanmagan obyektlar davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Bugungi kunda qurilishni yakunlash muddatlari qat'iy belgilanmaganligi sababli yuridik shaxslar tomonidan soliqdan qochish maqsadida qurilish muddatlarini bir necha yilga uzaytirib yurish holatlari aniqlanmoqda.

Kadastr agentligi ma'lumotlariga ko'ra 12 221 ta qurilishi tugallanmagan obyektlar to'g'risida ma'lumot taqdim etilgan bo'lib, shundan 1 023 tasi (8,4%) 1-yil, 1 573 tasi (12,9%) 2-yil, 2 213 tasi (18,1%) 3-yil, 1 767 tasi (14,5%) 4-yil, 1 391 tasi (11,4%) 5-yil va 4 254 tasi (34,8%) 6-yildan ortiq muddatdan buyon davom etmoqda.

Respublika bo'yicha yuridik shaxslarga tegishli 2,5 mingta va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan 8,3 mingta qurilishi tugallanmagan obyektlar Kadastr organlaridan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib mulkdorlariga egalik huquqi berilgan.

Ushbu holat bo'yicha xorij tajribasi o'rganilganda, Rossiyada qurilishi tugallanmagan obyekt davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng unga nisbatan mol-mulk solig'i hisoblanish boshlanishi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kadastr organlarida qurilishi tugallanmagan obyekt sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan inshootlarga minimal qiymatni qo'llash amaliyotini kengaytirish taklif etiladi. Buning natijasida mol-mulkni soliqqa tortishda yagonalik va shaffoflikni ta'minlash imkonini beradi.

6. *Soliq kodeksiga muvofiq, mol-mulk solig'i to'lovchilari ko'chmas mulk obyektining tugallanganlik darajasidan qat'i nazar, imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega.*

Shu bilan birga, ruxsat etuvchi hujjatlarsiz qurilgan ko'chmas mulk obyektlari uchun 1,5 foiz miqdoridagi umumbelgilangan soliq stavkasi qo'llaniladi.

Bugungi kunga kelib 363 ta tugallanmagan obyekt bo'yicha umumiy qiymati 20,1 mlrd. so'mlik imtiyozlardan foydalangan.

Bundan tashqari, Kadastr agentligi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotga asosan 16,6 mingta obyektlar hujjatsiz yoki o'zboshimchalik bilan qurilgan.

Tugallanmagan obyektlar uchun imtiyozlarning bekor qilinishi qurilishni o'z vaqtida yakunlash va mulk huquqini rasmiylashtirishni rag'batlantiradi, bu esa to'laqonli mulkiy huquqlarning shakllanishiga va huquqiy maqomi noaniq bo'lgan obyektlar sonining kamayishiga xizmat qiladi.

Ruxsat beruvchi hujjatlarsiz qurilgan obyektlar uchun soliq stavkasining oshirilishi qonunchilik talablariga rioya etish va ko'chmas mulkni rasman ro'yxatdan o'tkazish uchun iqtisodiy rag'bat yaratadi, bu esa noqonuniy qurilish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi va qurilish sohasidagi yashirin iqtisodiyotning qisqarishiga ko'maklashadi.

Misol uchun: "AAA" MCHJ MIZ ishtirokchisi hisoblanib, qurilish tugallanmagan binosi mavjud bo'lsada, bugungi kunda 271,7 mln so'mlik MIZ ishtirokchilari uchun berilgan mol-mulk solig'i imtiyozidan foydalanib kelmoqda.

Amalda hujjatsiz yerlar uchun jismoniy shaxslarga 3 baravar, yuridik shaxslarga 4 baravar miqdorida yer solig'ining oshirilgan stavka qo'llaniladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib:

1. Soliq imtiyozlari qurilishi tugallanmagan obyektlarga nisbatan qo'llamaslik;
2. Mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlar yoki ruxsat beruvchi hujjatlarsiz qurilgan obyektlarga nisbatan yuridik va jismoniy shaxslarga mol-mulk solig'i stavkasi 4 foiz miqdorida belgilash taklif etiladi.

7. *Soliq kodeksining 411-moddasida Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solish obyektini belgilangan bo'lib, kredit tashkiloti tomonidan qarzni so'ndirish hisobiga sotish maqsadida undirilgan mol-mulk (garov mol-mulki) soliq solish obyektini sifatida qaralmagan.*

Shu sababli, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisobotida "Kredit tashkiloti tomonidan qarzni so'ndirish hisobiga sotish maqsadida undirilgan mol-mulk (garov mol-mulki) tovar hisoblanadi, shu munosabat bilan mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solish obyektida hisobga olinmasligi kerak, kredit tashkiloti tomonidan o'z ehtiyojlari uchun foydalaniladigan garov mol-mulki bundan mustasno" degan mazmundagi izoh kiritilgan.

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar bo'yicha qarzdorliklarni qoplash evaziga bank balansiga jami 1,2 trln so'mlik 1,8 mingta mulk qabul qilingan.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha ushbu obyektlar soliq bazasi sifatida qaralmasdan kelinmoqda, biroq ko'chmas mulk obyektini

joylashgan yer uchastkasi maydoni yuridik shaxslarning yer solig‘i bazasi sifatida qaralib soliqqa tortiladi.

Ushbu holat bo‘yicha xorij tajribasi o‘rganilganda AQSH, Germaniya, Yaponiya, va Buyuk Britaniyada bank garov mol-mulkini o‘z balansiga kiritgandan so‘ng mol-mulk solig‘i to‘lovchi hisoblanishi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bank va kredit tashkilotlari tomonidan garovga olingan mol-mulkni Kadastr organlarida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va balansida aks ettirish hamda mulk huquqi o‘tgan oydan mol-mulk solig‘ini to‘lashini belgilash taklif etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi sharoitda O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosati mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash, byudjet daromadlarini oshirish va tadbirkorlik faoliyati uchun qulay muhit yaratishga qaratilmoqda. Soliq tizimini yanada takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri — soliqqa tortish mexanizmlarini isloh qilish, ya‘ni soliq yukini adolatli va iqtisodiy faollikni rag‘batlantiruvchi darajada belgilashdan iborat.

Soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, avvalo, soliq bazasini kengaytirish, noqonuniy iqtisodiy faoliyatni qisqartirish va soliq to‘lovchilarning hisobini aniq va to‘liq yuritishni talab etadi. Shu bilan birga, soliq ma‘murchiligini soddalashtirish va uning orqali soliq to‘lovchilar bilan davlat organlari o‘rtasidagi munosabatlarning ochiqligini ta‘minlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Soliq siyosatining yana bir muhim yo‘nalishi — soliq imtiyozlari tizimini qayta ko‘rib chiqish va uni optimallashtirishdir. Haddan ziyod imtiyozlar davlat byudjeti daromadlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, raqobat muhitining buzilishiga sabab bo‘ladi. Shu bois imtiyozlar faqat ijtimoiy va strategik ahamiyatga ega sohalarga qaratilgan, maqsadli va vaqtinchalik xarakterga ega bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda soliq siyosati samaradorligini oshirish uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlar dolzarb hisoblanadi:

- Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish va soliq bazasini kengaytirish;
- Soliq ma‘murchiligini soddalashtirish va raqamlashtirish;
- Soliq imtiyozlarini qisqartirish va uning shaffofligini ta‘minlash.

Ushbu chora-tadbirlar faqatgina davlat byudjeti barqarorligini ta‘minlab qolmay, balki iqtisodiyotning raqobatbardoshligini, biznes muhitini yaxshilaydi va uzoq muddatli iqtisodiy o‘rishni ta‘minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Соцэкгиз, 1962. – 684 с.
2. Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. – London: John Murray, 1817.
3. Musgrave R.A. Public Finance in Theory and Practice. – New York: McGraw-Hill, 1959.

4. Tanzi V., Zee H. Tax Policy for Emerging Markets: Developing Countries. – IMF Working Paper, 2000.
5. OECD. Tax Policy Reforms 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023.
6. World Bank & PwC. Paying Taxes 2023. – Washington D.C., 2023.
7. Ефремова Т.А. Развитие налогового администрирования в России: теория, методология, практика. – М.: Финансы и статистика, 2011.
8. Каратаев А.С. Концепция налогового потенциала крупнейших налогоплательщиков и методология его оценки. – М., 2015.
9. Абдурахманов О.К. Налоговые системы стран с переходной экономикой. Монография. – М.: «Палеотип», 2006. – 375 с.;
10. T.S.Malikov, N.X.Haydarov Moliya: umumdavlat moliyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: “Iqtisod-moliya”, 2009. -556 b.; 11.
11. Gadoyev E.F. Soliqqa tortish tartib-taomillarini soddalashtirish tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning muhim omili // “Iqtisod va moliya” jurnali, 2015, 1-son. – В.30-34.;
12. Худойкулов, С. ., & Бабаев, Ш. . (2022). Ўзбекистоннинг янги тараққиёт стратегияси шароитида солиқ сиёсати ва унинг асосий йўналишлари. Economics and Innovative Technologies, 10(4), 305–314. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss4/a30
13. Тошматов Ш.А. Корхоналарни ривожлантиришда солиқлар роли: Монография – Т.: «Fan va texnologiya», 2008. – 204 б.;
14. Жумаев Ш. Ўзбекистон республикасида солиқ маъмурчилиги ва солиқ тизими стратегиясини такомиллаштириш масалалари // Экономика и социум. 2024. №4-1 (119).
15. Жумаев, Ш. (2024). Ўзбекистон Республикасида солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(4), 368–374. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss4-pp368-374>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**